



Jizzax davlat  
Pedagogika  
universiteti

TARIX FAKULTETI



# TARIX va JAMIYAT

## JOURNAL 2023



**№5**

**HISTORY AND SOCIETY**  
**ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО**  
общественный электронный  
**ЖУРНАЛ**



## TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

---

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

---

**Bosh muharrir:** Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,  
t.f.n., dotsent.

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

**Mas'ul kotib:** Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

### TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

**Dizayner va sahifalovchi:** Axmurodov D.Q

---

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MASALALARI (TARIX VA MILLIY G‘OYA FANLARI MISOLIDA)

Norqo‘ziyev Sarvar –JDPU, Tarix fakulteti  
tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: J.Saidov- JDPU,  
Umumiy tarix kafedrası o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tarix fanining nazariyasiga, ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va ahamiyatiga e‘tibor qaratib, ba‘zi olimlar fikri va asosli misollar yordamida mavzu umumiy tahlil etgan.

**Kalit so‘zlar:** Tarix, nazariya, bilim, ijtimoiy-gumanitar, ta‘lim tizimi, tarixiy tafakkur.

**Аннотация:** В данной статье, уделяя внимание теории истории, роли и значению социальных и гуманитарных наук, предмет был проанализирован в целом с помощью мнения некоторых ученых и обоснованных примеров.

**Ключевые слова:** история, теория, познание, социогуманитарная, образовательная система, историческое мышление.

**Abstract:** In this article, paying attention to the theory of history, the role and importance of social and humanitarian sciences, the subject was analyzed in general with the help of the opinion of some scientists and valid examples.

**Key words:** History, theory, knowledge, socio-humanitarian, educational system, historical thinking.

Tarix fanining nazariyasini, uni muommolarini atroflicha ilmiy-nazariy va falsafiy jihatdan ishlab chiqilishi tarix fanidan ilmiy tadqiqotlarni olib borish jarayonida ijobiy natijalarga erishishda mustahkam zamin bo‘ladi. Bu to‘g‘risida ko‘plab olimlar o‘z qarashlarini aytib o‘tgan. Masalan: tadqiqotchi Borisnyov quyidagi so‘zlarni aytgan: “Tarix fanining nazariy muommolarini o‘rganish, shubhasiz, hozirgi kunda yuqori malakali tarixchilarni tayyorlash amaliyotida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda” [1. 526]. Ushbu tadqiqotchining bu fikriga qo‘shilish mumkin, chunki tarixiy tadqiqotlarning subyekti tarix fanidan yuqori saviyada ilmiy-nazariy bilimga ega bo‘lishi shart. Qaysiki, tarix nazariyasida bo‘shliq va mo‘rtlikning mavjud bo‘lishi tadqiqotchini ilmiy tadqiqotchilik faoliyatiga ta‘sir qilishi ehtimoldan xoli bo‘lmaydi.

Boshqa fanlar kabi tarix fani ham o‘z nazariyasiga ega. Tarix fani XIX asrdan mustaqil fan sifatida shakllanishi uchun zaruriy bo‘lgan nazariy jihatlari shakllangan edi. Tarix fani yo‘nalishida qator va mazmunan tarixni fan sifatida e‘tirof etadigan nazariyalar paydo bo‘ldi. Lekin tarix nazariyasi bo‘yicha turli bir-

birini inkor qiladigan qarashlar ham paydo bo'ldi. Bu turli munozaralarga olib keldi va hozirgacha bu munozaralar davom etib keladi. Bizning fikrimizcha bu munozara yana davom etaveradi.

Tarix nazariyasini tarixiy–falsafiy jihatdan tadqiq qilish uchun mavjud nazariyalarni qiyosiy tahlilini amalga oshirib, ulardagi umumiy tomonlarini va o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirish tadqiqotchi uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ladi. Nazariy jihatdan yuksak bilim va ko'nikmaga ega bo'lish tadqiqotning ijobiy natijasini kafolatlaydigan omil bo'ladi. Bu to'g'risida tadqiqotchi Novikovning fikri diqqatga sazovor: "Nazariy bilimlar empirik bilish bosqichida olingan natijalarni chuqurroq umumlashtirishga aylantirib, birinchi, ikkinchi va hokazo tartibdagi hodisalarning mohiyatini, o'rganilayotgan ob'ektning paydo bo'lishi, rivojlanish va o'zgarish qonuniyatlarini ochib beradi" [2. 484]. Demak, nazariy bilimning sifat jihatdan yuqori darajada bo'lishi ilmiy tadqiqotni chuqur umumlashtirishga, o'rganilayotgan obyektning genezisini mazmun mohiyatini atroflicha tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Hozirgi kungacha tarixchi olimlarning ilmiy-nazariy bilimlarining saviyasi ular bajarayotgan ilmiy tadqiqotlarning sifatiga bevosita ta'sir qilishi tabiiy jarayon bo'lib qolmoqda. Insonning tafakkuri fikrlash asosida rivojlanadi. Fikrlash esa ma'lum bir tarixiy voqelikni tasavvur qilishga imkon beradigan qandaydir bir tarixiy dalilni o'rganish asosida yuz beradi. Robin Kollingvud shunday ta'kidlaydi: "Tarixiy fikrlash – bu o'zligini anglash funksiyasi yoki vazifasini bajaradigan faoliyat, tafakkur shakli, u faqat tarixiy fikrlashni anglaydigan ongga tegishli" Demak, tarixiy ong tarixiy o'tmishni bilish uchun olingan bilimlar asosida shakllanadi. Tarixiy tafakkurni rivojlanishi uchun umume'tirof etilgan tarixiy taraqqiyot nazariyalarini bilish va ulardan tarixiy taraqqiyot jarayonlarini o'rganishda yoki tahlil qilganda foydalanish ko'nikmasini shakllantirish kerak bo'ladi. Agar odam tarixiy bilimga ega bo'lmasa unda tarixiy mushohada bo'lmaydi va u tarixiy tafakkurga ega bo'lmaydi.

Shu o'rinda aytib o'tish joizki, Ijtimoiy-gumanitar fanlarga ehtiyojning ortishini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikridan yaqqol anglashimiz mumkin: "Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondoshuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir "o'gay" qarash shakllanib qolgan. Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta'lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta'limda ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo'nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o'qitish va o'rgatish bo'yicha yaxlit kontseptsiya yo'q" [3. 228]. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yilning "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili", deb nomlanishi ham bejiz emas, albatta. Aslida ham inson bu yorug'

olaning eng oliy mavjudoti, eng oliy qadriyat ekanligi barcha dinlarda ham, fanlarda ham takrorlanib keladi. Biroq unga amal qilish masalasida bugun olimlar ham, odamlar ham ojizdek. Inson qadri nimada namoyon bo'ladi? Inson qachon qadrli mavjudot sifatida e'tirof etiladi? Inson qadri avvalo uning ongli mavjudot ekanligi, ilm-tafakkuri, imon-e'tiqodi, go'zallikni yarata olishi, ezgulik urug'ini sochishi, mehr-oqibatni namoyon eta olishi, qalblarni ka'ba deb bilishi kabilar bilan qadrli. Agar masalaga yanada jiddiyroq yondoshadigan bo'lsak, insonni qadrlaydigan sifat va fazilatlar qanday shakllantiriladi, ularni kim va qachon, qanday usullarda o'rgatadi? Bularning javobini biz bevosita ilm-fan, ta'lim tarbiyadan topamiz. Aynan insonning ma'naviy kamolini, insoniy qadr-qimmatini shakllantiradigan fanlar bu ijtimoiy-gumanitar fanlardir. Demak, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda yuzaga kelayotgan muammolar inson qadrini yo'qolishiga, jamiyatdagi beqarorliklarni yuzaga kelishiga, insonlardagi loqaydlik, sovuqqonlik, mas'uliyatsizlik kayfiyatini yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ma'lumki, "O'zbekiston - ulkan tabiiy zahiralar, iqtisodiy va insoniy salohiyatga boy mamlakat. Ammo yaratganni o'zi ato etgan yana bir bebaho boyligimiz borki, u ham bo'lsa, xalqimizning beqiyos intellektual va ma'naviy salohiyotidir. Ilm-fan namoyondalarining, ta'bir joiz bo'lsa, igna bilan quduq qaziydigan zahmatkash olimlarimizning mashaqqatli ilmiy izlanishlari mamlakatimiz uning bugungi va kelgusi ravnaqi uchun juda katta ahamiyatga ega. Bu fidoiy insonlar uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish maqsadida biz bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etamiz"[4. 118] deb ta'kidlagan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev. Chindan ham so'nggi yillarda mamlakatimizda tub burilish davrini boshlab berib, amalga oshirilayotgan islohatlar orqaga qaytmas va to'xtatib bo'lmas suratlarda rivojlanayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bugun yurtimizdagi o'zgarishlarga xalqaro keng jamoatchilik diqqat-e'tibor qaratib, katta qiziqish bildirmoqda. Bu esa shu jamiyatning a'zosi bo'lgan har bir fuqaroning zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Mazkur tushunchaning mazmun-mohiyatini tushuntirib berish aholi ayniqsa, yoshlarning qalbi va ongiga singdirishda ijtimoiy-gumanitar soha mutaxassislarining o'rni va ro'li nihoyatda ahamiyatlidir. Jamiyatda millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik, insonparvarlik va hamjihatlik kabi tamoyillarni mustahkamlashda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta'siri yuqori sanaladi. Biroq hozirgi vaqtda ayrim muammolarning ko'lami va miqiyosi kengayib borib, bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, keskin kurash va raqobat avj olayotgan globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash jarayonlariga turli yot g'oyalarni salbiy ta'siri ortib, odamlarning qalbi va ongini egallash uchun bo'layotgan murosasizlik

ijtimoiy-gumanitar sohadagi fundamental, amaliy va innovatsion ishlarni jonlashtirishni talab etmoqda.

Mamlakatimizdagi ta'lim tizimida boshlangan islohotlar o'quvchi va o'qituvchilarning ham o'z ustida ishlashga, izlanishga, ilmiy-ijodiy faoliyatga undayotgani barchamizni quvontiradi. Biroq hali bajarishimiz kerak bo'lgan vazifalar talaygina ekanligini mavjud muammolar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28-yanvar 2022-yildagi PF-60 son «2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi [5] farmonida ko'rsatilgan bir qator quyidagi ustuvor vazifalar mazmunidan ham bilishimiz mumkin:

1. Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish.
2. Mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish.
3. Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash.
4. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish.
5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish.
6. Milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish.
7. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Mana shu beligilangan vazifalarning birortasi yo'qki, uni ijtimoiy-gumanitar fanlarning yordamisiz bajarish mumkin bo'lsa. Demak, inson qadrini ko'tarishga qaratilgan chora-tadbirlar avvalo ijtimoiy-gumanitar fanlarning qanday o'qitilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda eng avvalo uzluksiz ta'limni gumanitarlashtirish, ijtimoiy gumanitar sohada olib borilayotgan tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish zarur. Nazariy jihatdan ilmiy asoslangan g'oyalarni realizatsiya qilish ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, uzoq vaqt davomida nazariyani amaliyotdan uzilib qolganligi bois qabul qilingan turli konsepsiyalar, unda ilgari surilgan g'oya va tamoyillar asosida yagona g'oya atrofida barchani birdek birlashtirish birmuncha murakkab jarayonga aylandi. Bu esa ijtimoiy-gumanitar fanlarning bugungi kundagi ahamiyatini oshirib, hali qilinishi kerak bo'lgan ishlarning ko'pligini ko'rsatadi. Bunda eng avvalo hal qilinishi kerak bo'lgan ishlar: Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishda avvalo o'quv dasturlarini jiddiy tahlil qilishi kerak. Takroriy mavzulardan qochish, ularni shunga yaqin bo'lgan mavzular

mazmuniga singdirish kerak, ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishning samarali texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish kerak.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ясперс К. “Смысл и назначение истории”. стр 526
2. Коллингвуд Р. “Идея истории” Автобиография. М., 1980. С. 484
3. Шавкат Мирзиёев. Янги Ўзбекистан стратегияси -Т, 2021. -Б.228
4. "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari", Yoshlar nashriyot uyi Toshkent-2019, 118- bet.
5. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.